TA’LIMDA TARBIYANING MOHIYATI

Kamolov Azamat Jamalovich
Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi Ta’lim tashkilotlarida tarbiyaviy ishlarni va chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlikni muvofiqlashtirish boshqarmasi boshlig‘i

Annotatsiya. Maqolada yosh avlodni milliy qadriyatlar, vatanparvarlik va ma’naviy-axloqiy fazilatlar ruhida tarbiyalash masalalari yoritilgan. Unda Abdulla Avloniy, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat va Hamza Hakimzoda Niyoziy kabi jadid ma’rifatparvarlarining ta’lim va tarbiya haqidagi qarashlari tahlil qilingan. Shuningdek, tarbiya jarayonida oila, maktab va pedagogning o‘rni, pedagogik diagnostika va korreksiyalash faoliyatining ahamiyati hamda o‘quvchilarda sog‘lom dunyoqarashni shakllantirishning muhim jihatlari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: tarbiya, ta’lim, milliy tarbiya, jadid ma’rifatparvarlari, ma’naviy-axloqiy tarbiya, milliy qadriyatlar, vatanparvarlik, pedagogik diagnostika, pedagogik korreksiya, sog‘lom dunyoqarash, tarbiya metodlari.

Аннотация. В статье освещаются вопросы воспитания молодого поколения на основе национальных ценностей, патриотизма и духовно-нравственных качеств. Анализируются взгляды таких представителей джадидского просветительского движения, как Абдулла Авлони, Махмудходжа Бехбуди, Абдурауф Фитрат и Хамза Хакимзода Ниёзи, на образование и воспитание. Также раскрываются роль семьи, школы и педагога в воспитательном процессе, значение педагогической диагностики и коррекции, а также важные аспекты формирования здорового мировоззрения учащихся.

Ключевые слова: воспитание, образование, национальное воспитание, джадидские просветители, духовно-нравственное воспитание, национальные ценности, патриотизм, педагогическая диагностика, педагогическая коррекция, здоровое мировоззрение, методы воспитания.

Abstract. The article discusses the upbringing of the younger generation based on national values, patriotism, and spiritual and moral qualities. It analyzes the views of Jadid enlighteners such as Abdulla Avloni, Mahmudkhoja Behbudi, Abdurauf Fitrat, and Hamza Hakimzoda Niyozi on education and upbringing. The article also highlights the role of the family, school, and teacher in the educational process, the importance of pedagogical diagnosis and correction, and key aspects

of developing a healthy worldview among students.

Keywords: upbringing, education, national upbringing, Jadid enlighteners, spiritual and moral education, national values, patriotism, pedagogical diagnosis, pedagogical correction, healthy worldview, methods of upbringing.

Yosh avlodni Vatanga muhabbat va yurtga sadoqat ruhida tarbiyalash uchun o‘rta ta’lim maktablarida ta’lim va tarbiyaga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ajdodlarimiz asrlar davomida sevib mutolaa qilgan «Qobusnoma», “Hibbattul haqoyiq”, «Oila», “Turkiy Guliston yoxud axloq” singari asarlar shular jumlasidandir. Ushbu nodir asarlarda avval axloq-tarbiyaga oid biror so‘z va tushunchani izohlab, keyin unga o‘quvchi amal qilish uchun naqliy va axloqiy dalillar keltiradi. Umuman ularning mazmun-mundarijasi, ularda ilgari surilgan ilg‘or g‘oyalar bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Bugun yoshlarga ta’lim va tarbiya berish nafaqat ota-ona, pedagoglarning, balki, butun bir jamiyatning burchidir.

Ta’lim va tarbiyaning o‘rtasida ochiq-oydin farq bor. Ta’lim, tarbiyaning bir bo‘lagidir. Tarbiya esa ta’limni o‘z ichiga oladi, aksincha emas. Demak, tarbiya o‘z-o‘zidan ta’limga nisbatan komil va keng qamrovlidir. Islomiy tarbiyaning ma’nosi esa jamiyatda har taraflama komil inson shaxsiyatini barpo qilish va albatta, bu tarbiya ruhiy, aqliy va jismoniy tarbiyani o‘z ichiga oladi. Tarbiya jarayoni o‘zaro bog‘liq ikki faoliyatni - o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatidan tashkil topadi.

Jadid ma’rifatparvarlari Abdulla Avloniy, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdulla Qodiriy, Abdurauf Fitratlarning ma’naviy-ma’rifiy qarashlari bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q.

Taniqli jadid ma’rifatparvari, birinchi o‘zbek pedagogi Abdulla Avloniyning tarbiyaga bergan ta’rifi jadidchilik faoliyatida tarbiya masalalari nechog‘lik yuksak o‘rin tutganidan dalolat beradi “Alhosil tarbiya biz uchun yo hayot yo mamot, yo najot yo halokat, yo saodat yo falokat masalasidir”. Tarbiya masalasi bugungi kunda ham dolzarb masala hisoblanadi. Jadidchilar orasida Abdulla Avloniy o‘z faoliyati davomida tarbiya masalalariga juda keng o‘rin ajratadi. Avloniy o‘zi yaratgan asarlarda ta’lim bilan bir qatorda tarbiyaga ham alohida e’tibor qaratish lozimligini ta’kidlaydi. Uning “Turkiy Guliston yoxud axloq” asari aynan tarbiya masalalariga bag‘ishlangan. Avloniy shuningdek:

-Maktab - tarbiyaning bosh manbai;

-O‘qituvchi – ma’naviyat targ‘ibotchisi;

-Tarbiya - xalqning kelajagini belgilovchi kuch, degan g‘oyalarni ilgari suradi.

Behbudiy yangicha ta’lim tarbiyani afzalliklarini isbotlashda ko‘proq o‘zi erishgan yutuqlarga, o‘zi amaliyotga tatbiq qilgan yangi tartiblarga tayanadi. Behbudiy axloq va tarbiyaning asosi - maktab, barcha ilmlarning boshi maktab, saodatning, fozil insonning ma’naviy chashmasi - maktab degan aqidaga qat’iy amal qilgan. Mahmudxo‘ja Behbudiy uchun milliy g‘oya - millatni taraqqiyotga olib chiqish g‘oyasi edi. Bugunda ma’rifarparvar jadidlarning bebaho asarlari, ilmiy, nazmiy va nasriy meroslari, ijtimoiy-falsafiy va axloqiy g‘oyalari o‘zbek xalqi- ning ma’naviy ma’rifatini, milliy tarbiya, milliy qadriyatlar va milliy ongni yuksaltirish yo‘lida xizmat qilib, yoshlar qalbida vatanga muhabbat va sadoqat tuyg‘ularini tarbiyalab kelmoqda. Ularning dunyoqarashlarida bayon etilgan falsafiy-axloqiy fikrlari xalqimizning madaniy-ma’naviy qadriyatlari sifatida hanuzgacha saqlanib kelmoqda.

Abdulla Avloniyning fikricha: “...xulq - nafsning suvrati”. Hamza Hakimzoda Niyoziyning ta’riflashicha: “Axloq xulqning ja’midur. Axloq ikki qism bo‘lur. Biri axloqi husniya (yaxshi xulqlar), ikkinchisi axloqi zamima (yomon xulqlar)dur.

Buyuk ma’rifatparvar ziyolilarning g‘oyalari “Yangi O‘zbekiston – ma’rifatli jamiyat” Konsepsiyasi asosida milliy g‘oya va mafkurasining teran tomirlari bo‘lib qolaveradi. Fitratning pedagogik qarashlari, asosan, «Oila» asari orqali namoyon bo'ladi. Unda u oilaning jamiyatdagi o‘rni, farzand tarbiyasidagi roli, ayniqsa, onalarning oila, bola tarbiyasidagi vazifalarini keng yoritadi. Fitrat bolaga yoshligidan boshlab milliy o‘zlikni anglash, tarix va diniy bilimlarni o‘rgatishni tavsiya qiladi. Uning fikricha, xalqning ma’naviy tiklanishi oila va maktabda beriladigan tarbiyaga bog‘liq.

Yoshlarda axloqiy xislatlar bilan birga, umuminsoniy fazilatlarni, ma’naviy sifatlarni tarbiyalashda pedagogik diagnostika va korreksiyalash faoliyatiga murojaat etish zarur. Buning uchun, eng avvalo, inson fazilatlarining o‘zaro munosabatlarini va o‘rnini aniqlab olmoq lozim. Ma’naviyat esa aqliy, axloqiy, huquqiy, iqtisodiy va siyosiy bilimlar zamirida shakllanadi. Mazkur bilimlar, o‘z navbatida, inson ijobiy sifatlarining kamol topib, boyib borishiga olib keladi. Tarbiyaning ta’limdan farqlantiruvchi yana bir xususiyati shundaki, u yaxlit holda va konsentrik asosda amalga oshiriladi. Tarbiyaning turli tomonlari bir-biri bilan uzviy bog‘langan. Boshlang‘ich sinfda ham, o‘rta va yuqori sinfda ham ayni bir narsa, masalan, do‘stlik, ahillik, vatanparvarlik kabilarini tarbiyalash ko‘zda tutiladi.

Tarbiyaning yana bir xususiyati uning uzoq muddat davom etishidir.

Ta’limdan farqli ravishda u bola tug‘ilganidan boshlanadi, maktab yillarida, undan keyin va butun umr bo‘yi davom etadi.

“Tarbiya – ma’naviy manbalar va hozirgi zamon talablari ehtiyojlarini nazarda tutgan holda o‘qituvchining o‘quvchi bilan aniq bir maqsadga qaratilgan o‘zaro amaliy va nazariy muloqotidir”.

“Tarbiya-tarbiyachi xohlagan sifatlarni tarbiyalanuvchilar ongiga singdirish uchun tarbiyalanuvchining ruhiyatiga muayyan suratda va tizimli ta’sir ko‘rsatish jarayonidir”.

Bola rivojlanishining, o‘zligini bilishining asosiy omili bu faoliyatdir. Faoliyat nuqtai nazaridan yondashilgan qoida maktab hayotining hamma jabhalarida ta’lim-tarbiya jarayonlariga singib ketadi. Faoliyat o‘quvchilar bilimlarini mustaqil egallashga undaydi, ularni qay ixtisosga moyilliklarini aniqlashga ijodiy faoliyat tajribasini, hissiy qadriyat munosabatlarini o‘zlashtirishlariga yordam beradi. O‘quvchilarning birinchi sinfdan boshlab imkoniyat darajasidagi foydali mehnat bilan shug‘ullanishlariga erishish lozim. Bunday mehnat ko‘pchilik jamoa bo‘lib bajarilganida yaxshi natija beradi.

Odatlar yoshlarga yaqinlaridan meros bo‘lib o‘tmaydi, balki ular bilan muntazam muloqotlari tufayli taqlid qilish, tarbiya orqali hosil qilinadi. Oxir-oqibatda odat ehtiyojga aylanadi. Yosh avlod qalbida Vatan tuyg‘usini shakllantirish, oilani qadrlash, ota-onaga, Vatanga muhabbat tuyg‘usini uyg‘otish, milliy qadriyatlarga sadoqatni kuchaytirish, ezgulik timsoli bo‘lgan yo‘lni ulug‘lash, umuminsoniy qadriyatlarga, ilmga intilish va ilg‘or madaniyatni shakllantirish, dinning dunyoviylik bilan qarama-qarshi emasligini anglash, huquqiy madaniyat - sog‘lom dunyoqarashning muhim omili ekani to‘g‘risidagi ma’lumotlarni ko‘paytirish, ma’rifatning shaxs intellektual salohiyatini oshirish - bularning barchasiga tarbiya metodlari orqali erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Avloniy, A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992.

2.Behbudiy, M. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma’naviyat, 1997.

3.Fitrat, A. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. – Toshkent: Ma’naviyat, 2000.

4.Hamza Hakimzoda Niyoziy. To‘la asarlar to‘plami. – Toshkent: Fan, 1988.

5.Qobusnoma. – Toshkent: O‘qituvchi, 2006.